

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QAYUMOVA GULSHODAXON MUXAMMADJON QIZI

**PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING
KASBIY MAS’ULIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Qayumova Gulshodaxon Muxammadjon qizi

Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak logopedlarning kasbiy mas’uliyatini
rivojlantirish texnologiyalari3

Каюмова Гулшодахон Мухаммаджон кизи

Технологии развития профессиональной ответственности будущих логопедов в
процессе педагогической практики.....21

Kayumova Gulshadakhon Mukhammadjon kizi

Technologies for developing professional responsibility of future speech therapists
during pedagogical practise.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QAYUMOVA GULSHODAXON MUXAMMADJON QIZI

**PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING
KASBIY MAS’ULIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq– 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12355 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (yangi.cspu.uz/uz/ilmiy-kengash) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Feruzaxon Usmanovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muhabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "18" 08 soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'shasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi-kengash@cspu.uz.)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (514 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "07" 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil "07" 08 da 27 - raqamli reyestr bayonnomasi).



G.O.Ernazarova

asosiy beruvchi Ilmiy kengash
a'zosi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), professor

I.D.Qodirov

asosiy beruvchi Ilmiy kengash
a'zosi, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

B.O.Ximmataliyev

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangicha mexanizmlari, ustuvor ta‘lim tamoyillariga muvofiq didaktik ta‘minoti yaratilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy amaliyotga tayyorlashda ular uchun qulay va innovatsion o‘quv muhitini yaratishning ta‘sirchan usullarini qo‘llash orqali talabalarda kasbiy mas‘uliyatni tizimli rivojlantirib borish dolzarb sanalmoqda. YuNESKO tomonidan “O‘qituvchilarning maqomi to‘g‘risidagi tavsiyalarida pedagog madaniyati va kasbiy etikasi tamoyillarini belgilash va keng targ‘ib etish talabi kiritilgan. Bu tamoyillar mutaxassisning ijtimoiy mavqeini oshirish bilan bir qatorda uning kasbiy burch va qadriyatlarini yuqori darajada his qilishlarini ta‘minlash imkonini berishi ta‘kidlangan. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak logopedlarda kasbga oid bo‘lgan muhim qadriyatlarni rivojlantirish, kasbiy madaniyati hamda mas‘uliyatini shakllantirishga oid ta‘limiy manbaalarni mazmunan boyitish va takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyoning ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida va ilmiy tadqiqot markazlarida maxsus pedagoglarning mutaxassislikka oid nazariy kompetensiyasini amaliy faoliyat uyg‘unligida rivojlantirish, kasbga doir kompetensiyalar negizida kasbiy mas‘uliyatni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, pedagogik amaliyotni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish orqali bo‘lajak logopedlarning kasbiy mas‘uliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash va kasbiy burch hamda javobgarlik hissini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda bo‘lajak logopedlarning kasbiy mas‘uliyati barqaror bo‘lishini ta‘minlaydigan mexanizmlar, innovatsion texnologiyalar, yondashuvlarni takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Bunda mutaxassislarning kasbiy mas‘uliyatini har tomonlama shakllantirish va rivojlantirish muammolarini o‘rganish hamda amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda oliy ta‘lim mazmunini rivojlantirish va tashkiliy jihatdan modernizatsiyalash bo‘yicha huquqiy-me‘yorlar takomillashtirilgan. “Fan, ta‘lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida ta‘lim sifatini oshirish, ta‘lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish”¹ -muhim vazifalardan sanaladi. Xususan, bo‘lajak logopedlarning kasbiy mas‘uliyatini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga ustuvorlik berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak logopedlarning kasbiy mas‘uliyatini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish masalasi alohida e‘tiborni talab qiladi. Chunki logopedik faoliyat nafaqat nutq nuqsonlarini korreksiya qilish, balki bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini chuqur anglash, individual yondashuvni ta‘minlash va ularning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash kabi murakkab

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2017. – B.25.

vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida, yuqori darajadagi kasbiy mas'uliyat, refleksiv tafakkur va amaliy ko'nikmalarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son, 2019-yil 29-aprelda "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son, 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirish jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan B.Abdullayeva, N.Abdullayeva, M.Davletshin, R.Djurayev, N.Muslimov, R.Safarova, O'.Tolipov, J.Yo'ldoshev, G'.Shoumarov va boshqalar o'qituvchi shaxsi va unda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning turli aspektlari, M.Ayupova, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, Z.Mamarajabova, M.Maxmudova, L.Muminova, U.Fayziyeva, M.Xakimova, F.Qodirova, X.Raximova, Sh.Taxtayarova, F.Teshaboyeva, Sh.Sharipova, D.Yakubjonova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida maxsus pedagogika sohasida kadrlar tayyorlashning qadriyatli yondashuvlari va akmeologik masalalari muayyan darajada tahlil etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari A.Xutorskiy, V.Slastenin, I.Zimnyaya, N.Tarasova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kasbiy mas'uliyat kasbiy kompetentlikning ajralmas tarkibiy komponenti sifatida talqin etilib, pedagogik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, V.Krichevskiy, N.Kuzmina, T.Sorokina pedagogning kasbiy faoliyatida kompetentlik va mas'uliyatning o'zaro bog'liqligi, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, refleksiv yondashuv hamda uzluksiz kasbiy takomillashuvni ta'minlovchi pedagogik mexanizmlar atroficha tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan Joan Stark, V.A.Adolf, E.Zeer, J.Rawen, R.Boyatzis, D.Bartram, W.Hutmacher va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishning konseptual masalalari, pedagogik ta'lim kontekstida kasbiy faoliyat

jarayonlarini takomillashtirish metodlari, shuningdek, kompetentli pedagog kadrlarni tayyorlash muammolari muayyan darajada yoritib berilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak logopedlarda pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishning didaktik xususiyatlarini aniqlash;

pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

talabalarda kasbiy mas'uliyatni rivojlanganligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish jarayoni tanlab olingan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat universitetining jami 264 nafar talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning mazmuni, usul, shakl, vosita va texnologiyalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid adabiyotlar, ilmiy manbalar, DTS, o'quv reja va fan dasturlari, xorijiy va mahalliy tajribalarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning didaktik xususiyatlari mas'uliyat va kompetensiya tushunchalarining shaxsiy va kasbiy faollik kontekstidagi integratsiyasini pedagogik harakatlar kompleksiga yo'naltirilgan muhitda samaradorlik effektiga ko'ra ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirish modeli o'quv jarayonini loyihalashning kasbiy qadriyatlar tizimini barqarorlashtiruvchi deontologik yondashuvlarni davriy monitoringa yo'naltirilgan diagnostika jarayoniga shaxsiy qaror va jamoaviy xulosalar mutanosibligida singdirish asosida takomillashtirilgan;

pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy mas'uliyatni shakllantirish texnologiyalari talabalarda kasbiy burch va tanyach kompetensiyalarni intensiv shakllantiruvchi metodik tajribalarni mustaqil ta'lim amaliyotida interaktivlik tavsifiga ko'ra qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mas'uliyatning shakllanganligini baholash mezonlari kasbiy faoliyatga doir transformatsion keyslarni individual loyihalashtirilgan "odam-obyekt-muhit" imitatsiyasida ierarxik munosabatda qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak logopedlarni mutaxassislik faoliyatga tayyorlashda kasbiy mas'uliyat, pedagog mas'uliyati, kasbiy fazilat, kasbiy faoliyat, pedagogik kompetentlik, kasbiy kompetensiya, kasb etika, refleksiv yondashuv tushunchalari amaliy tavsiflangan;

pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak logopedlar faoliyatini tashkil etishning integrativ modeli tarkibi va mazmuni takomillashtirilgan bo'lib, "Mas'uliyatli pedagog porterti" yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan;

bo'lajak maxsus pedagoglarni pedagogik amaliyot jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etish va natijaga yo'naltirishda kasbiy mas'uliyatni namoyon etishga qaratilgan yondashuvlar asosida "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasi nashr etilib, amaliyotga joriy etilgan;

bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari va didaktik imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida pedagogik amaliyotni tashkil etish dasturi, "Portret kundaligi" ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublikamizdagi va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, o'quv qo'llanma va uslubiy vositalar, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan xajmida ekanligi; tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy g'oyalarning soha amaliyotining mohiyatini ifodalashga xizmat qilishi bilan belgilanadi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirishning didaktik xususiyatlariga oid xorijiy va milliy tajribalar tahlil etilganligi, kasbiy mas'uliyat va kasbiy kompetensiya tushunchalarining integrativ mohiyati ilmiy asoslanganligi, pedagogik shart-sharoitlar va innovatsion yondashuvlar tizimlashtirilib, ularning samarali mexanizmlari ochib berilganligi, ishlab chiqilgan integrativ modelning tarkibiy komponentlari va amaliy qo'llash imkoniyatlari asoslanganligi, pedagogik amaliyotni bosqichma-bosqich tashkil etish orqali kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish hamda uni baholash mezonlarining ilmiy-uslubiy asoslari aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati pedagogika institutlari va universitetlarida Maxsus pedagogika (Logopediya) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun pedagogik amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minot ishlab chiqilganligi, xususan, kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik amaliyot dasturi, "Portret kundaligi", individual rivojlanish dasturi kabi innovatsion vositalar joriy etilganligi, pedagogik amaliyotni interaktiv-refleksiv muhitda tashkil etishga oid o'quv-uslubiy yondashuvlar takomillashtirilganligi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkoniyatlari kengaytirilganligi hamda kasbiy mas'uliyatni baholash

mezonlari ishlab chiqilib, ularni amaliyot jarayonida qo'llash orqali talabalarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning didaktik xususiyatlari mas'uliyat va kompetensiya tushunchalarining shaxsiy va kasbiy faollik kontekstidagi integratsiyasini pedagogik harakatlar kompleksiga yo'naltirilgan muhitda samaradorlik effektiga ko'ra ta'minlashga doir takliflari "Mutaxassislikka kirish (Maxsus pedagogika)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 07-oktabrdagi 387-son buyrug'i va 881777-son guvohnomasi). Natijada, talabalarning pedagogik amaliyot jarayonini kasbiy yo'naltirishning innovatsion muhitini rivojlantirishga xizmat qilgan;

bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirish modeli o'quv jarayonini loyihalashning kasbiy qadriyatlar tizimini barqarorlashtiruvchi deontologik yondashuvlarni davriy monitoringa yo'naltirilgan diagnostika jarayoniga shaxsiy qaror va jamoaviy xulosalar mutanosibligida singdirishga oid tavsiyalari "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 09-iyuldagi 258-son buyrug'i va 142707-guvohnomasi). Natijada, talabalarning pedagogik amaliyoti davomida deontologik yondashuvlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan;

pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy mas'uliyatni shakllantirish texnologiyalari talabalarda kasbiy burch va tanyach kompetensiyalarni intensiv shakllantiruvchi metodik tajribalarni mustaqil ta'lim amaliyotida interaktivlik tavsifiga ko'ra qo'llashga oid takliflari "Farg'ona" telekanalining "Xayrli kun", "Yoshlar vaqti" dasturlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi milliy teleradiokompaniyasi "Farg'ona viloyati teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 12-dekabrdagi №01-12/259-son ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning kasbiy mas'uliyat ko'nikmalarini intensiv rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda (6 ta, shundan, respublika jurnallarida 2 ta, xorijiy jurnalda 4 ta maqolalar) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi keltirilib o'tilgan bo'lib, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan. Shuningdek, tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar aks etgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda kasbiy mas'uliyat va uning kasbiy kompetensiya bilan o'zaro aloqadorligi, bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bo'yicha xorijiy va milliy tajribalar yoritilgan va tahlil etilgan.

Mas'uliyat shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik sifati bo'lib, u faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, logopedik faoliyatda mas'uliyat “vazifa”, “burch” va “sadoqat” tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Logoped mutaxassisning asosiy vazifasi nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarning nutqini korreksiya qilish, rivojlantirish va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishdan iborat bo'lib, bu jarayonda uning kasbiy burchni anglash darajasi, puxta tayyorgarligi hamda individual yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.


S.V.Bikovning fikricha, “mas'uliyatli inson erkin faoliyat yurita olishi zarur, aks holda u mas'uliyatni his qilmasligi mumkin. Bunda asosiysi shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi, bilimi va egallagan tajribasi katta rol o'ynaydi”. Mazkur yondashuv logopedik faoliyat nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning didaktik xususiyatlari mas'uliyat va kompetensiya tushunchalarining shaxsiy hamda kasbiy faollik kontekstidagi integratsiyasini pedagogik harakatlar kompleksiga yo'naltirilgan ta'lim muhitida ta'minlash bilan tavsiflanadi. Chunki logopedik mashg'ulotlar jarayonida har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasi, psixologik xususiyatlari va individual ehtiyojlari doimiy o'zgarib boradi. Bunday vaziyatlarda mutaxassis tayyor metodik qoliplar bilan cheklanmasdan, vaziyatni tezkor tahlil qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda korreksion-pedagogik metod va usullarni moslashtira olishi zarur. Bu esa kasbiy kompetensiyaning mas'uliyat bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Aynan mustaqil fikrlash, refleksiv yondashuv va erkin kasbiy faoliyat logopedning korreksion jarayonni samarali tashkil etishiga, kutilgan natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Demak, mas'uliyat, erkin faoliyat va mustaqil qaror qabul qilish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishning didaktik asoslarini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

Kasbiy mas'uliyat pedagog, ayniqsa logoped faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omil bo'lib, nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslarning nutqiy hamda shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Logopedning kasbiy ta'siri nafaqat nutqni korreksiya qilish, balki o'quvchining o'ziga ishonchi, muloqotga kirishish qobiliyati va ijtimoiylashuvini rivojlantirishda ham namoyon bo'ladi.

Asoslovchi tadqiqotda kasbiy mas'uliyat sifatida o'z sohasidagi yangi g'oyalarni muntazam o'rganishni ham muhim sifatlardan deb hisoblandi. Chunki, innovatsion yondashuvlarni o'rganish va joriy etishda ham kasbiy mas'uliyat muhim. Bu xususda D.Sh.Jo'rayeva bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muammoli yondashuvning imkoniyatlarini tadqiq etgan. Uning fikricha: "Muammoli yondashuvga asoslangan nostandart topshiriqlar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda qulay muhitni ta'minlaydi. Talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim shartidir. Biroq shaxsning ijodiy qobiliyati faol jarayonda namoyon bo'ladi. Aynan amaliyot jarayoni talabalarni kasbiy ijodga motivatsiyalashda keng imkoniyat yaratadi". Demak, kasbiy mas'uliyat logopedik faoliyatda bir qator pedagogik xususiyatlar orqali ifodalanadi: mutaxassis har bir shaxsga hurmat va individual yondashuv asosida ishlaydi, axloqiy me'yorlarga amal qiladi hamda korreksion jarayonda adolat va izchillikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, u mijozlarning psixologik holatini hisobga olib, ularni qo'llab-quvvatlaydi, ichki to'siqlarni bartaraf etishga ko'maklashadi. Kasbiy mas'uliyat va kompetensiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy sharoitda nutq nuqsonlari dinamikasining o'zgarib borishi logopeddan uzluksiz kasbiy rivojlanishni talab etadi.

Kasbiy mas'uliyat va kasbiy kompetensiyaning uyg'un holda talabalarda shakllanishi muhimligini N.A.Muslimovning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi ham kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta'lim oluvchining o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish hamda ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash hisoblansa-da, shular bilan birgalikda ularning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o'rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: o'qituvchining pedagogik faoliyatida kasbiy bilimlarni egallashga ijobiy yondashish; muammoli vaziyatlarning to'g'ri yechimini topishda kasbiy va texnologik ijodiy tafakkurni shakllantirib borish; pedagog faoliyatida individual ta'lim metodlarini qo'llay olish, o'quv-amaliyot va ishlab chiqarish jarayonlarini reproduktiv hamda ijodiy yo'llar orqali rivojlantirish; kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan kasbiy-pedagogik sifatlarni, ya'ni mehribonlik, bolalarni e'zozlash va boshqa axloqiy fazilatlarni rivojlantirish". Mazkur yondashuv kasbiy kompetentlikning mazmunini nafaqat nazariy bilimlar, balki metodik tayyorgarlik va kasbiy-axloqiy fazilatlarning uyg'unligi orqali tavsiflashini ko'rsatadi. Shu jihatdan bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatning rivojlanganlik darajasini baholashda kasbiy bilimlarni egallaganlik, kasbiy faoliyatga metodik tayyorlik hamda etik-estetik tayyorlik o'zaro bog'liq mezonlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot advomida talabalarning o'quv jarayonida va pedagogik amaliyotda kasbiy mas'uliyatini shakllantirish mazmuni va ularning integratsion aloqalari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'quv jarayoni va pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy mas'uliyat mazmuni

Pedagogik amaliyot kasbiy mas'uliyatni real faoliyat orqali mustahkamlovchi, talabaning kasbiy kompetensiyasini integratsiyalashgan holda shakllantiruvchi muhim jarayon sifatida namoyon bo'ladi hamda talabaning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Amaliyot davomida talaba nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar va kattalar bilan bevosita ishlash orqali o'z kasbining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglaydi. Bu jarayon unda kasbiy mas'uliyat va burch hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari aniqlashib borib, kasb mohiyatini esa qadriyat sifatida anglay boshlaydi.

Ilmiy manbalar tahlili asosida kasbiy burch, kasbiy mas'uliyat hamda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish tushunchalarining nazariy-metodologik mazmuni atroflicha o'rganildi. Tadqiqot davomida mazkur tushunchalarga oid mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Tahlil natijalariga hamda olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda mas'uliyatli logoped tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rif shakllantirilib, ifodalandi: **mas'uliyatli logoped** - kasb mohiyati va kasbiy burchni qadriyat sifatida anglagan, logopedik deontologiya tamoyillariga qat'iy amal qiluvchi, korreksion-pedagogik faoliyatni zamonaviy talablar hamda innovatsion yondashuvlar asosida samarali tashkil etadigan, o'z kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirib, uning natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oluvchi mutaxassisdir.

Logopedik amaliyotda korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayoni talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rishning muhim maydoni hisoblanadi, chunki nutq nuqsonlarini bartaraf etish jarayoni ko'p qirrali va individual yondashuvni talab etadi. Pedagogik amaliyot talabalarga logopedik mashg'ulotlarni rejalashtirish, o'tkazish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ular bevosita korreksion jarayonda ishtirok etish orqali o'zlarining kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Bu jarayonda talabalar o'zlaridagi qo'rquv va ishonchsizlikni yengib o'tish imkoniyatiga ega bo'lادilar. Shu bilan birga ular bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish usullarini o'zlashtiradilar. Amaliyot davomida talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya

qilish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Bu ularning kasbiy o'sishiga xizmat qilib, o'zlarini turli pedagogik va ijtimoiy rollarda sinab ko'radilar. Natijada bo'lajak logopedlarda mustahkam kasbiy pozitsiya shakllanadi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining asoslovchi bosqichida oliy ta'limda pedagogik amaliyot jarayonini modernizatsiyalashda pedagoglarning deontologik yondashuv mexanizmlari, hamkorlik muhiti, innovatsion yondashuv va texnologiyalari muhim omil ekanligi aniqlandi. Bu esa, talabalarda kasbiy burch va tanyach kompetensiyalarni intensiv shakllantiruvchi metodik tizim va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ta'limiy tajribalarni olib borishga asos bo'ldi.


Dissertatsiyaning **“Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish orqali kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning didaktik xususiyatlari va modeli, kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishga deontologik yondashuv mexanizmlari, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini shakllantirish texnologiyalari yoritilgan.

Tajribaga tayanilgan va sinovdan o'tkazilgan barcha yondashuvlar ilmiy asoslangan holda amaliyotga yaxlit model shaklida joriy etildi. Tadqiqotda bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirishga qaratilgan integrativ model ishlab chiqildi(2-rasmga qarang). Mazkur model maqsadli, mazmunli, tashkiliy-texnologik hamda natijaviy-baholovchi komponentlardan iborat bo'lib, ularning o'zaro uzviyligi pedagogik amaliyotning samaradorligini ta'minlaydi.

Maqsadli komponent bo'lajak logopedni kasbiy burch, vijdon va javobgarlik asosida faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan strategik maqsadni belgilaydi. Mazmunli komponent kasbiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy qadriyatlar va refleksiv munosabatlar tizimini qamrab oladi.

Tashkiliy-texnologik komponent pedagogik amaliyotni propedevtik, texnologik va monitoring bosqichlarida tashkil etib, interaktiv metodlar, “Portret kundaligi”, individual rivojlanish dasturi hamda diagnostika orqali kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishni ta'minlaydi. Natijaviy-baholovchi komponent esa kasbiy bilim, metodik va etik-estetik tayyorgarlik mezonlari asosida rivojlanish darajasini aniqlaydi. Modelni amaliy joriy etish inklyuziv va korreksion ta'lim sharoitida samarali ishlay oladigan, kasbiy mas'uliyatli logopedni shakllantirish imkonini beradi.

Modelda aks etgan pedagogik tamoyillarni pedagogik amaliyot jarayonida izchil va o'zaro uyg'un holda qo'llash bo'lajak logopedlarda kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda mas'uliyatlilik, vijdon, burch va kasbiy faoliyatga ongli munosabat kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni kelgusida samarali va javobgar mutaxassis sifatida shakllantirishning mustahkam asosini yaratadi. Bu tamoyillar tajriba-sinov ishlarining samaradorligini oshirish, bo'lajak logopedlarni kasbiy mas'uliyatni shakllantirishda faol va mustaqil ravishda harakatlanishlarini ta'minlash maqsadida qo'llanildi. Amaliyotda qo'llanilgan metodik tizim keyingi paragraflarda keltirilganligi sababli baholovchi komponent izohlanadi.



2-rasm. Bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish modeli

Modelda pedagogik amaliyotni bosqichma-bosqich (propedevtik, texnologik va monitoring) tashkil etish orqali talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga ongli va mas'uliyatli munosabatini shakllantirish nazarda tutilgan. Unda interaktiv ta'lim muhiti, refleksiv faoliyat ("Portret kundaligi"), individual rivojlanish dasturlari hamda korreksion-amaliy faoliyatni integratsiyalash asosida kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish mexanizmlari belgilangan.

Bo'lajak logopedlarning kasbiy mas'uliyatini tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va boshqa innovasion yondashuvlar asosida tayyorlanishi ularda nafaqat zaruriy kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki kasbiy mas'uliyatni izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda interaktiv yondashuv alohida ahamiyat kasb etib, talabalarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga va o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga undaydi. Shuningdek, "Mas'uliyatli logoped portreti" modeli orqali talabalarda qanday kasbiy va shaxsiy sifatlar shakllanishi lozimligi aniq belgilab beriladi va ushbu sifatlar pedagogik amaliyot jarayonida izchil rivojlantirib boriladi.

Pedagogik amaliyotning mazmuni va shakllari interaktiv usullar bilan boyitilganda, talabalar dars kuzatish, mustaqil mashg'ulot o'tish, korreksion ishlarni tashkil etish, didaktik materiallar yaratish kabi faoliyatlarda faol ishtirok etadilar va har bir jarayonda o'z rolini anglay boshlaydilar. Bu jarayonda **"Portret kundaligi"** muhim vosita sifatida xizmat qilib, talabalar o'z faoliyatini kunma-kun qayd etish, erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish orqali o'z-o'zini baholash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada ularda refleksiv fikrlash, o'z ustida ishlash va kasbiy burchni chuqur anglash ko'nikmalari shakllanadi.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishda pedagog tomonidan har bir talabaga **"Individual rivojlanish dasturi"**ni yaratilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu dasturda belgilangan har bir bandeda ko'zda tutilgan vazifalarni hamda ko'rsatmalarni pedagogik amaliyotda qo'llab ko'rish yanada samarali natijalarni taqdim etdi. Chunki ushbu dastur talabaning har bir mashg'ulotda ishtirok etishi, auditoriyada kuzatilishi, adaptiv resurslardan foydalanishi va har bir bolaga mos rejalar tuzish imkonini berdi, shu orqali talabaning kasbiy kompetentligi hamda shaxsiy mas'uliyatini integrativ ravishda shakllantirish uchun asos yaratildi. Bo'lajak logopedlarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirish va professional rivojlanishga xizmat qiluvchi "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga olib, ularning har biri aniq amaliy vazifalar bilan bog'langan: pedagogik-psixologik va mutaxassislik (logopedik) bilimlar; didaktik malakalar; tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari; kasbiy fobiyalar ustida ishlash ko'nikmalari; o'zini-o'zi rivojlantirish maqsadlari; o'zini-o'zi rivojlantirish uchun topshiriqlar.

"Individual rivojlanish dasturi" amaliyot uchun belgilangan pedagog uchun nafaqat shaxsiy strategiya, balki bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetentligi va mas'uliyatini rivojlantirish mexanizmidir, shuningdek, pedagogik amaliyotda uni to'g'ri qo'llash orqali talabaning nazariy bilimlari, amaliy tayyorgarligi va psixologo-pedagogik ko'nikmalari

bir vaqtda mukammal shakllantiriladi, bu esa kelajakda samarali logopedik faoliyatni ta'minlash uchun muhim shart bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning o'z-o'zini baholashi va refleksiya "Portret kundaligi", kuzatuv daftarlari va tahliliy hisobotlar orqali amalga oshirilganda talabalar o'z faoliyatini chuqur tahlil qilish, xatolarini tan olish va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga o'rgandilar, bu jarayon ularda ichki nazorat mexanizmini shakllantirib, vijdon va burch hissini mustahkamladi, natijada talaba o'z harakatlari uchun nafaqat tashqi bahoga, balki ichki axloqiy mezonlarga tayangan holda javob berdi va o'zini doimiy ravishda takomillashtirishga intildi.

O'qituvchi-avtoritet akseologik yondashuviga asoslangan amaliyotda pedagog o'zining shaxsiy namunasi, nutqi, munosabati va faoliyati orqali talabalarda mas'uliyat, vijdon va burch tushunchalarini shakllantirdi, chunki talabalar amaliyot davomida ko'proq kuzatish va taqlid qilish orqali o'rgandilar, shu sababli o'qituvchining har bir harakati, qarorlari va bolalarga munosabati ular uchun namuna vazifasini bajardi va kelgusida ularning kasbiy faoliyatida qaytarildi. Umuman olganda, mazkur didaktik xususiyatlarni pedagogik amaliyot imkoniyatlari bilan uyg'un holda qo'llash bo'lajak logopedlarda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki yuqori darajadagi mas'uliyat, insonparvarlik, vijdon va burch hissini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa ularning kelgusida bolalar taqdiriga daxldor muhim qarorlarni qabul qilishda ongli, ehtiyotkor va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

"Portret kundaligi", "Kutuvlar zanjiri" texnologiyalari va algoritmlashtirilgan mashg'ulotlarni qo'llash pedagogik amaliyotni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilib, talabalarni yangi usullar, raqamli vositalar va interfaol texnologiyalardan foydalanishga undaydi, bu esa ularning kasbiy faoliyatga qiziqishini oshirish bilan birga, har bir yangilikni mas'uliyat bilan tatbiq etish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bilan birga, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan faoliyatlar orqali talabalar o'z ustida ishlash, bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirish, o'z imkoniyatlarini baholash va kelgusi maqsadlarni belgilashga o'rganadilar, bu esa kasbiy mas'uliyatning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

